

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**



**«MENEJMENT» KAFEDRASI**

**«XALQARO MENEJMENT» FANIDAN**

**TAQDIMOT**

**Bajardi: Boltayev R.**

**Tekshirdi: Majidov Sh.**

**TOSHKENT - 2015**

**Buyuk Britaniya va Shimoliy  
Irlandiya Birlashgan Qirolligi**  
United Kingdom of Great Britain  
and Northern Ireland<sup>1</sup>



Bayroq




Gerb

---

*Shior: Dieu et mon droit*

(Fransuzcha: God and my right)

# Madhiya: God Save the Queen (de-facto)



**Poytaxt**

London

**Rasmiy til(lar)**

Ingliz tili

**Hukumat**

*Hamdo'stlik*

**Buyuk Britaniya**, Britaniya, ([ingl. Great Britain](#)) Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi ([ingl. United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland](#)) — Shimoli-G'arbiy Yevropadagi davlat. Buyuk Britaniya oroli (mamlakat hududining 90 %i shu orolda) va Irlandiya orolining shimoli-sharqiy qismida hamda ularga yondosh mayda orollar (Anglsi, Uayt, Normand, Orkney, Gebrid, Shetlend va boshqalar)da joylashgan. G'arbdan [Atlantika okeani](#), sharqdan Shimoliy dengiz o'rab turadi. Buyuk Britaniya mamlakat asosiy qismining nomi bilan ko'pincha Angliya deb ataladi. Maydoni 244,1 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 63.23 mln kishi (2012-yil). Poytaxti — [London](#) shahri. Tarixan tarkib topgan va milliy jihatdan har xil bo'lgan 4 ma'muriy siyosiy qism (Angliya, Uels, Shotlandiya va unga yondosh orollar, Shimoliy Irlandiya) dan iborat. Men va Normand orollari muostaqil ma'muriy hudud hisoblanadi.



## Davlat tuzumi


Buyuk Britaniya konstitutsion monarxiya. Davlat boshlig'i qirol (qirolicha). Mamlakatning konstitutsiyasi yo'q. [1215-yilgi](#) Ulug' Erkinliklar hartiyasi, [1679-yilgi](#) Habeas korpus akti, [1931-yilgi](#) Vestminster statuta, [1969-yilgi](#) Xalq vakilligi to'g'risidagi akt va boshqa eng muhim parlament hujjatlari hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni qirol (qirolicha) va parlament (u ikki palatadan iborat: Lordlar palatasi va Jamoalar palatasi), ijrochi hokimiyatni bosh vazir boshchiligidagi hukumat (vazirlar mahkamasi) amalga oshiradi. Bosh vazirni qirol (qirolicha) tayinlaydi. Hukumat a'zolari parlament a'zolaridan bo'lishi kerak. Buyuk Britaniya tarkibidagi Angliya, Uels va Shotlandiya o'zining sud tizimiga, mahalliy boshqaruv organlariga ega. Shimoliy Irlandiya ma'muriy muxtoriyat huquqiga ega bo'lib, uni qirol (qirolicha) tayinlagan gubernator boshqaradi. Buyuk Britaniya o'tmishda [Britaniya imperiyasi](#) tarkibida bo'lgan mamlakat va hududlarni birlashtiruvchi Hamdo'stlikka boshchilik qiladi.





**Janubga tomon orol kengaya boradi; bu yerda — Uels va orolning g'arbida Kembriy tog'lari (Snoudon tog'i, 1085 m) bor. Angliyaning g'arbiy qirg'og'ida keng qo'ltiqlar (Liverpul, Kardigan, Bristol), markaziy va janubiy qismlarida pasttekisliklar (Shimoli-Sharqiy Feni, London havzasi, Midlend, Xempshir), qator asimmetrik tepalar (balandligi 200– 300 m) bor. Shim. Irlandiya ayrim kichik-kichik qirlardan (Antrim, Sperrin, Morn va b.) iborat.**

**Buyuk Britaniyada foydali qazilmalar kam. Asosan temir rudasi va yuqori sifatli toshko'mir, tosh tuz, kaolin, ozroq miqdorda yonuvchi slanes qazib olinadi. Neft va rangli metall konlari mavjud. Shimoliy dengizning Buyuk Britaniya qirg'og'i yaqinida tabiiy gaz konlari bor.**



Xo'jaligi. **Buyuk Britaniya** — iqtisodiy jihatdan rivojlangan, yirik sanoatlashgan mamlakat. Yalpi ichki mahsulotning 21 % ni sanoat, 1,8 % ni qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 70,2 % ni xizmat ko'rsatish tarmog'i beradi. 1 va 2-jahon urushlari orasida bir qancha sanoat tarmoqlari, xususan harbiy industriya bilan bog'langan kimyo, elektrotexnika va avtomobil sanoati bir qadar taraqqiy etdi. 2-jahon urushida Angliya iqtisodiyotiga katta putur yetdi: mamlakat milliy boyliklarining 1/4 qismi qo'ldan ketdi; sanoat ishlab chiqarish urushdan avvalgi darajadan 25% kamaydi, chet ellardagi kapitalining qariyb 1/4 qismini qo'ldan boy berishga yoki sotishga majbur bo'ldi. Iqtisodiyotning harbiy izga tushirilishi ko'pdan ko'p behuda harajatlarni keltirib chiqardi. Jahon sanoat i.ch.ida 1948-yilda Buyuk Britaniya ulushi 11,9 % edi, 1968-yilda 7,4 % ga tushib qoldi.

## Sanoati

Buyuk Britaniya eksportining 90 % ni sanoat ta'minlaydi. 2-jahon urushidan keyin sanoat tuzilmasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi: konchilik, qora metallurgiya, yengil va oziq-ovqat sanoati, shuningdek kemasozlik va avtomobilsozlik kabi tarmoqlar ulushi kamaydi; energetika, elektr mashinasozligi va kimyo sanoatining ulushi oshdi. Atom, elektron, aerokosmik, neftni qayta ishlash va neft kimyosi tarmoqdari katta ahamiyat kasb etdi. Mashinasozlik — sanoatning muhim tarmog'i, avtomobil, samolyot, raketalar, kemalar, sanoat ishxonalari uchun kompleks asbobuskunalar, ilmiy apparatlar va asboblari, radio elektronika va elektronika mahsulotlari ishlab chiqarish ayniqsa ajralib turadi. Traktorsozlik, stanoksozlik, neftni kayta ishlash, kimyo (plastmassa va sintetik smolalar, dori-darmonlar, ma'danli o'g'it, bo'yoqlar, kimyoviy tolalar, sintetik kauchuk, sulfat kislota ishlab chiqarish), to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Yengil sanoatning poyabzal tikish, tikuvchilik va b. tarmoqlari bo'yicha yirik ishxonalari mavjud. Mashinasozlik markazlarining ko'pchiligi Jan. va Markaziy Angliyada joylashgan, ularning eng muhimlari — London, Birmingem, Koventri, Luton, Sheffild sh.larida. Kora metallurgiyaning asosiy markazlari — Janubiy Uels, Yorkshir va Hambersayd, Shim. Angliya va Shotlandiyada. Rangli metallurgiya ishxonalari — Midlend, Jan. Uels, Taynsayd va Londonda. Atom sanoati ishxonalari Shimoli-G'arbiy Angliya va London atrofida joylashgan. Kimyo sanoati ishxonalari Katta London, Lankashir, Cheshir, Shim. dengiz va Bristol qo'ltig'i sohillarida, to'qimachilik sanoati ishxonalari Lankashir va Yorkshirda. Shimoliy dengizda katta neft va gaz zaxiralari mavjud. Buyuk Britaniyada yiliga o'rtacha 48,2 mln. tonna toshko'mir, 121,8 mln. tonna neft, 89,8 mlrd. m<sup>3</sup> tabiiy gaz qazib olinadi, 304,5 mlrd. kVt/soat elektr energiyasi (asosan issiqlik elektr stansiyalarida) hosil qilinadi, 17,5 mln. tonna po'lat ishlab chiqariladi.





# Mashina sanoati



## Transporti

Transport yo'llarining uzunligi 32 ming km. Asosiy transport yo'llari uzeli — London; undan 11 tomonga transport yo'llari ketgan. Transport yo'llarning zichligi jihatidan Yevropada Belgiyadan keyin 2o'rinda. 368,8 ming km avtomobil yo'li bor (1990-yillar oxirlari). Yo'lovchilar tashishda havo transportining mavqei katta. Dengiz savdo flotining tonnaji 4,3 mln. tonna dedveyt. Eng yirik dengiz portlari: London, Sautgempton, MilfordXeyven, Xall, Immengem, Liverpul, Manchester va boshqalar. Tashqi savdo mamlakat iqtisodiyoti uchun juda katta ahamiyatga ega.



- Многие виды спорта произошли из Англии.
- Гольф – это главный вклад Шотландии в Британский спорт.
- Футбол- спорт рабочего класса как бокс, борьба, снукер, «метание стрелок», собачьи бега.
- Аэробика и йога, сквош и велоспорт среди видов спорта, где участие увеличивается в недавние годы.
- Уимблдон – пригород на юге Лондона, где все английские чемпионаты тенниса на лужайке проводятся в июле (с 1877 года).
- Уэмбли – стадион на севере Лондона, где международные футбольные матчи, розыгрыши Кубка по футболу проводятся с 1923 года.
- Футбол – это игра, в которую играют почти во всех странах.
- Финал футбольного состязания происходит каждый май на известном стадионе Уэмбли в Лондоне.



# Service industry: Tertiary industry

- **Major banks in the UK with Bank of England as the central bank**

HSBC Bank	London
Royal Bank of Scotland	Edinburgh
Barclays Bank	London
HBOS	Edinburgh
Lloyds TSB	London
Standard Chartered	London
Alliance & Leicester	Leicester
Northern Rock	Newcastle upon Tyne
Co-operative Bank	Manchester
Bradford & Bingley	Bingley



# Pound sterling: A symbol of nationalist character

- **Pound sterling: The symbol of the UK**

- **Units of the sterling**

- **Coins**

1 penny      2 pence 5 pence      10 pence  
20 pence      50 pence      1 pound      2 pounds  
5 pounds (commemorative only)

### **Notes**

5 pounds      10 pounds  
20 pounds (seldom)      50 pounds (rarely used)

- \*On 15 February 1971, the U.K. decimalized, replacing the shilling and penny with a single subdivision, the “new penny”. The word “new” was used on coins until 1981.

# Pound Sterling: a hard currency

## Exchange rates against USD \$ (and Euro €)

Year	£/USD	USD/£		
1990	£0.5633	\$1.775		
1991	£0.5675	\$1.762		
1992	£0.5699	\$1.755		
1993	£0.6663	\$1.501		
1994	£0.6536	\$1.530		
1995	£0.6338	\$1.578		
1996	£0.6411	\$1.560		
1997	£0.6106	\$1.638		
1998	£0.6037	\$1.656		
<b>£/USD</b>	<b>USD/£</b>	<b>£/EUR</b>	<b>EUR/£</b>	
1999	£0.6185	\$1.617	£0.6595	€1.516
2000	£0.6609	\$1.513	£0.6099	€1.640
2001	£0.6943	\$1.440	£0.6223	€1.607
2002	£0.6664	\$1.501	£0.6289	€1.590
2003	£0.6123	\$1.633	£0.6924	€1.444
2004	£0.5460	\$1.831	£0.6788	€1.473
2005	£0.5500	\$1.821	£0.6842	€1.463
2006	£0.5426	\$1.859	£0.6815	€1.467
2008/10/14	£0.5716	\$1.749	£0.7819	€1.279

# O'zbekiston-Buyuk Britaniya munosabatlari

- Zamonaviy bosqichda ikki tomonlama munosabatlar taraqqiyotiga Birlashgan Qirollik O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan olgan 1991 yil 31 dekabr kuni asos solingan edi. 1992 yil 18 fevralda esa mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatiya munosabatlari o'rnatildi. Shu bilan birga, Savdo va sanoat bo'yicha O'zbekiston - Britaniya Kengashi tashkil etildi, ikki mamlakat ta'lim va ekspert doiralari o'rtasidagi aloqalar ham jadallik bilan rivojlanib bormoqda.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1993-yil noyabr oyida Buyuk Britaniyaga buyurgan tashrifi ikki tomonlama munosabatlarning zamonaviy tarixiga muhim voqea bo'lib kirgani holda O'zbekiston - Britaniya hamkorligi siyosiy va huquqiy poydevorining asosi bo'ldi.





- Ikki mamlakat tashqi siyosiy, mudofaa va tashqi iqtisodiy aloqalarga mutasaddi mahkamalar o'rtasidagi va boshqa qator hukumat tashkilotlari doirasidagi institutsional muloqot keng miqyosdagi masalalar bo'yicha o'zaro anglashuvni chuqurlashtirish hamda qo'shma tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazishning samarali vositasi hisoblanadi. Bunday muloqotlar muntazam maslahatlashuvlar hamda Toshkent va Londonga tashriflar doirasida o'tkazilmoqda. Joriy yilda ham tomonlar yuqori darajadagi qator rasmiy tashriflar uyushtirishni rejalashtirishmoqda.
- O'zbekiston va Buyuk Britaniya ko'pgina xalqaro siyosiy masalalar yuzasidan, jumladan, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, terrorizm va narkotrafikka qarshi kurash sohalarida umumiy manfaatlarga egadirlar. Toshkent va London Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga ko'maklashish masalalari bo'yicha doimiy maslahatlashuvlarni o'tkazib keladi.
- Parlamentlararo aloqalar ham jadal rivojlanmoqda. 2009 yili Britaniya parlamentida taniqli siyosatchi Jon Veyverli boshchiligidagi "Britaniya - O'zbekiston" umumpartiyaviy guruhi tuzildi. O'z navbatida, 2010 yili mamlakatimiz Oliy Majlisida Buyuk Britaniya Parlamenti bilan hamkorlik bo'yicha guruh joriy etildi. O'sha yilning sentyabrida mazkur guruhlar o'rtasida O'zaro anglashuv memorandumini imzolandi va uning doirasida delegatsiyalarning tashriflari uyushtirildi.





O'zbekiston va Buyuk Britaniya salmoqli iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlardir. Savdo va sanoat bo'yicha O'zbekiston - Britaniya Kengashi ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalarni rivojlantirishning asosiy mexanizmi va maydoni bo'lgani holda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vaziri hamda Britaniya Savdo va investitsiyalar vazirligining vakili ushbu Kengashning hamraisilari hisoblanadi. Savdo va sanoat bo'yicha O'zbekiston - Britaniya Kengashining majlislari har yili navbat bilan Toshkent va Londonda o'tkaziladi. Mazkur tuzilmaning 2011 yil noyabrda Londonda bo'lib o'tgan 18 - yig'ilishida eng ko'p

miqdordagi Britaniya va xalqaro biznes vakillari - 63 kompaniyadan 100 nafardan ziyod kishi ishtirok etdi. Majlis va alohida uchrashuvlar chog'ida umumiy qiymati 550 million AQSh dollaridan ortiq bo'lgan qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama etildi. "Daromadlarning ikki tomonlama soliqqa tortilishiga yo'l qo'ymaslik hamda daromad va kapital soliqlarini to'lashdan bosh tortishni bartaraf qilish to'g'risida"gi, "Iqtisodiy hamkorlik to'g'risida"gi, "Investitsiyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risida"gi, "Havo transporti aloqasi to'g'risida"gi va "Sayyohlik sohasidagi hamkorlik to'g'risida"gi bitimlar iqtisodiy sohadagi faol hamkorlikka xizmat qilmoqda.


2011 yilda ikki tomonlama savdo aylanmasining hajmi 177,7 million AQSh dollarini tashkil etdi. O'zbekistonda britaniyalik sarmoyadorlar ishtirokidagi 419 ta korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 104 tasi yuz foiz Britaniya kapitali asosida tuzilgan, 315 tasi esa qo'shma korxonalar hisoblanadi. Mamlakatimiz Britaniyaga asosan qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho toshlardan tayyorlangan mahsulotlar, gazlama, transport, sug'urta, kommunikatsiya va sayyohlik xizmatlarini eksport qiladi. Britaniya importining asosini esa transport, me'moriy-muhandislik, tog'-kon va qishloq xo'jaligiga oid va boshqa xizmatlar, mexanika asbob-uskunalarini tashkil etadi.

“British-Ameriken Tobakko” i “Tetis Petroleum” kompaniyalari O’zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya kiritgan britaniyalik asosiy sarmoyadorlar hisoblanadi. Toshkentda Britaniyaning “Vorley Parsons” kompaniyasi bilan hamkorlikda yaratilgan Injiniring markazi faoliyat ko’rsatmoqda. “Rio Tinto” va “Eksn Mobil” kompaniyalari bilan loyihalarni amalga oshirish bo’yicha muzokaralar olib borilmoqda.



# WorleyParsons

resources & energy



“Ta’lim, fan va madaniyat sohasida hamkorlik to’g’risida”gi bitimga tayanadigan madaniy-gumanitar aloqalar ikki tomonlama hamkorlikning yana bir muvaffaqiyatli yo’nalishi hisoblanadi. 2002 yil O’zbekiston poytaxtida o’z faoliyatini boshlagan Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti Londondagi Vestminster universiteti bilan hamkorlikda xorijda ochilgan bu turdagi birinchi oliy o’quv yurtidir. Mazkur universitet nafaqat O’zbekistonda, balki haqli ravishda mintaqadagi yetakchi o’quv muassasasiga aylandi.

Ta’lim sohasidagi ikki tomonlama munosabatlarda 1996 yildan buyon Toshkentda o’z vakolatxonasiga ega bo’lgan Britaniya Kengashi bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Britaniya Kengashi ijrochi direktori Martin Devidsonning 2008 yil oktyabridagi O’zbekistonga safari chog’ida “O’zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg’armasi bilan O’zaro anglashuv memorandumini imzolandi. 2009 yil avgust oyida Britaniya Kengashining O’zbekistondagi faoliyati to’g’risidagi hukumatlararo Memorandum imzolandi. Britaniya Kengashining “INSPIRE” dasturi doirasida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, O’zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent To’qimachilik va yengil sanoat instituti, Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti muvofiq ravishda Metropolitan London universiteti, Ist Angliya Universiteti, London dizayn maktabi va Markaziy Osiyo bo’yicha Kembrij Forumi bilan sheriklik munosabatlarini amalga oshirmoqda.



Kembrij universiteti, shu jumladan, ushbu o'quv muassasasi huzurida tashkil etilgan, professor Siddixart Saksena boshqarayotgan Markaziy Osiyo bo'yicha Forum O'zbekistonning mazkur sohadagi ko'p yillik sherigi hisoblanadi. Toshkentda Yuqori texnologiyalar markazini yaratish hozirgi paytdagi asosiy qo'shma loyiha hisoblanadi. Shuningdek, Siyosiy tadqiqotlar markazi ham 2010 yilda imzolangan O'zaro anglashuv memorandumida Markaziy Osiyo bo'yicha Kembrij Forumi bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligi munosabati bilan 2011 yilda katta xizmatlari va O'zbekiston - Britaniya munosabatlari taraqqiyotiga qo'shgan hissasi uchun Britaniya - O'zbekiston jamiyati raisi, Savdo va sanoat bo'yicha O'zbekiston - Britaniya Kengashi hamraisi doktor X.But "Do'stlik" ordeni bilan, Markaziy Osiyo bo'yicha Kembrij Forumining raisi professor S.Saksena esa "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligiga 20 yil" esdalik nishoni bilan mukofotlandilar.



**E`TIBORINGIZ UCHUN  
RAHMAT**

**The End**